

**MAHALLIY BYUDJETNING DAROMADLAR BAZASINI KENGAYTIRISH**

*Axrarov Jasurbek Sadiqjanovich*

*O'zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi  
magisturatura tinglovchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Mahalliy byudjetning daromadlar bazasini kengaytirish haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Mahalliy byudjetlar, daromad, mahalliy soliqlar, yig'imlar.

Mahalliy byudjetlar - davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi. Mahalliy byudjetlarda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqso, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. Mahalliy byudjetlarning daromadlari mahalliy soliqlar va yig'imlar hamda to'lovlardan tashkil topadi. Mahalliy byudjetlarning mablag'lari hududiy rivojlanishning moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar har bir mamlakat davlat byudjetining ajralmas qismidir. O'zbekiston hududida birinchi Mahalliy byudjetlar dastlab O'rta Osiyoda Rossiya mustamlakachilik hukmronligi o'rnatilganidan keyin shahar va viloyat byudjetlari sifatida 19-asrning 70-yillaridan shakllana boshladi. Keyinchalik uyezd byudjetlari tuzildi. Bu byudjetlarning hajmi aholining soni va ehtiyojlarini e'tiborga olmay, chor Rossiyasining Turkiston gubernatorligi markaziy apparati amaldorlari tomonidan belgilanar va eng ko'p qismi boshqaruv, politsiya, sud organlariga sarflanardi. O'zbekistonda birinchi marta zamonaviy ko'rinishdagi Mahalliy byudjetlar 1924—25 yillarda vujudga keldi (qarang Davlat byudjeti). O'zRda Mahalliy byudjetlarning daromad manbalari ichida qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'idan normativlar bo'yicha ajratmalar yetakchi o'rinni egallaydi. Bundan tashqari, resurslar soliqlari va boshqa soliqlar (suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, ekologiya solig'i, infratuzilmani rivojlantirish solig'i va boshqalar) ham Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda qatnashadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son va "Mahalliy budjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 7-iyundagi PF-5075-son farmonlarini ijro etish yuzasidan, shuningdek mahalliy budjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish va yangi ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun qo'shimcha mablag'larni jalb qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

Moliya organlari va davlat soliq xizmati organlari, shuningdek mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga tushumlarni ko‘paytirishga va soliq solinadigan bazani kengaytirishga yo‘naltirilgan ishlarini takomillashtirish borasidagi faoliyatini tartibga solish va o‘zaro hamkorlik qilish tartibi to‘g‘risidagi Vaqtinchalik nizom (keyingi o‘rinlarda Vaqtinchalik nizom deb ataladi) 1-ilovaga muvofiq;

Tumanlar (shaharlar) moliya bo‘limlari xodimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlar parametrlarining so‘zsiz bajarilishini ta‘minlash va mahalliy budjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

Tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiyalari xodimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlar parametrlarining so‘zsiz bajarilishini ta‘minlash va mahalliy budjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Vaqtinchalik nizom talablarining so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘uliyat O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga va Davlat soliq qo‘mitasiga yuklansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi mavjud resurslarni safarbar etish bo‘yicha kunlik monitoring olib borilishini hisobga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari parametrlarining bajarilishiga, shuningdek davlat maqsadli dasturlarini barqaror moliyalashtirishning muhim omili sifatida mahalliy budjetlarning daromadlar bazasini kengaytirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta‘minlasinlar.

3. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq Vaqtinchalik nizom doirasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar, tumanlar (shaharlar) hokimlarining birinchi o‘rinbosarlari davlat soliq xizmati, moliya organlari va boshqa tegishli mahalliy organlar hamda tijorat banklari bilan birgalikda har bir tuman (shahar)ning o‘ziga xos xususiyati va salohiyatidan kelib chiqqan holda qo‘shimcha manbalarni izlash va shu asosda mahalliy budjet daromadlari bazasini kengaytirish yo‘li bilan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari parametrlarini so‘zsiz bajarish bo‘yicha faoliyat muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilishini ta‘minlaydilar.

4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, mahalliy budjetlarning daromadlar bazasini kengaytirishning qo‘shimcha zaxiralarini izlash va shu asosda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi dinamikasi va tendensiyalarini hisobga olgan holda soliq tushumlarining aniqlashtirilgan prognozlarini keyinchalik davlat soliq xizmati organlariga yetkazish uchun

vazirlikning markaziy apparatidan malakali mutaxassislarni har oyda joylarga yuborsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi davlat soliq xizmati organlari xodimlarining shaxsiy mas‘uliyatini oshirish choralarini kuchaytirsin, bunda quyidagilarni ta‘minlashga alohida e‘tiborni qaratsin:

soliq to‘lovchilar — jismoniy va yuridik shaxslarning faoliyati ustidan joyning o‘ziga chiqib nazorat qiluvchi mansabdor shaxslarga har kungi yo‘l-yo‘riq berishni o‘z ichiga qamrab oladigan korrupsiyaga qarshi choralarni ishlab chiqish va amalga oshirish;[1]

lavozim vakolatlarini shaxsiy boylik orttirish maqsadida suiiste‘mol qilishning, shuningdek qisqa muddatli tekshirishlar va naqd pul tushumi xronometrajini o‘tkazish davomida funksional vazifalar lozim darajada bajarilmasligining hamda normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya qilmaslikning oldini olish va buning uchun qonunchilik doirasida qat‘iy jazolarni qo‘llash.[2]

6. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat soliq qo‘mitasi bilan birgalikda har bir hudud va har bir soliq to‘lovchi, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar turlari bo‘yicha doimiy yangilab boriladigan to‘liq ma‘lumotlar bazasi shakllantirilishini, shuningdek tuman (shahar) darajasida axborot tizimlarining samarali va uzluksiz o‘zaro hamkorligini ta‘minlasin.[3]

7. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat soliq qo‘mitasi bilan birgalikda har bir hisobot davri yakuni bo‘yicha Vaqtinchalik nizom bajarilishini tanqidiy tahlil qilsin, keyinchalik qo‘shimcha zaxiralarni topish va shu asosda mahalliy budjetning daromad bazasi kengaytirilishini barbod qilgan yoki o‘zini chetga olgan davlat soliq xizmati va moliya organlarining hududiy va tuman (shahar) bo‘linmalari rahbarlari va mansabdor shaxslariga nisbatan egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo‘lgan qat‘iy choralarni ko‘rsin.[4]

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari J.A.Qo‘chqorov zimmasiga yuklansin.

Mahalliy byudjetlar mablag‘lari hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda fan, ta‘lim, madaniyat, sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta‘minot, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini ta‘minlash, byudjet tashkilotlarini saklash, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish va boshqa moliyalashtiriladi. Mahalliy byudjetning moliyaviy barqarorligi bu shunday kompleks tushunchaki, unga ko‘ra ma‘lum bir mahalliy hududning barqaror rivojlanishi, shu bilan birga, byudjet riski mavjud vaqtda ham moliyaviy xavfsizligini saqlab tura olishi uchun zarur bo‘lgan miqdorda pul fondiga egalik holatini aks ettiradi. Bunda mahalliy byudjetning moliyaviy barqarorligi shartlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:[5]

- byudjet xarajatlari va daromadlarining balanslashtirilganligi;

- byudjetning moliyaviy mustaqilligi va to'lovga qobiliyatligi, ya'ni mahalliy organlarning hech qanday moliyaviy yordamsiz, byudjetga moliyaviy resurslarni safarbar qila olish qobiliyati;

- o'z majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajara olishi.

Ko'pgina xorij adabiyotlarida, byudjet barqarorligini ta'minlashda uch indikator o'rganiladi:

- 1) Byudjet simmetriyasi;
- 2) Daromad potentsiali;
- 3) Byudjetning ta'minlanganligi.[6]

Ko'rish mumkinki, mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligi ularning moliyaviy xavfsizligi bilan uzviy bog'liqlikda ifodalangan. Zero, shu orqali moliyaviy barqarorlikning turli darajalarini, ularni belgilovchi mezonlari va indikatorlarini aniqlash mumkin bo'ladi. Shunday qilib, mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligi etarli darajada o'z moliyaviy mablag'lariga ega bo'lishi, byudjetning balanslashtirilganligi hamda xarajatlarning aksariyat qismi aynan ijtimoiy-madaniy sohani moliyalashtirishga qaratilganligida namoyon bo'ladi. Mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini aniqlashda muhim ko'rsatkichlar bo'lib, bu - daromadlarning shakllanishi, ularning manbalari hamda xarajatlar va ularning yo'nalishlaridir.[7]

#### **Xulosa:**

Mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini baholash orqali mahalliy organlar kelasi moliyaviy yil uchun samarali mahalliy byudjetni rejalashtirishni amalga oshirishlari mumkin bo'ladi. Xususan, ko'pchilik davlatlarda yuqoridagi ko'rsatkichlarning me'yoriy qiymati belgilangan bo'lib, shu asosida munitsipal byudjetlar o'z moliyaviy holatini baholaydi va o'z faoliyatini yuritadi. Mazkur indikatorlar turli davlatlarda turlicha bo'lishi mumkin, chunki ularda byudjet siyosati va moliyaviy rivojlanish tentsiyalari turlichadir. Mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash orqali mahalliy hududiy birliklarning nafaqat moliyaviy holati yaxshilanadi, balki hududning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati oshadi. Shunisi ahamiyatliki, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligiga ham alohida e'tibor qaratiladi. Sababi, ijtimoiy xarajatlar jami mahalliy xarajatlarning kattagina qismini tashkil etadi va u o'z ichiga ta'lim, sog'liqni saqlash hamda madaniyat sohalarini qamrab oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. 2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida// <https://lex.uz/ru/docs/-5186044>[1]
2. 2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida//<https://lex.uz/docs/-4635016>[2]

3. Soliq va budget siyosatining 2019-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida//<https://lex.uz/docs/-4123665>[3]

4. Burxonov E.M. Mahalliy byudjetlarni muvozanatlashning iqtisodiy va huquqiy masalalari. - Toshkent: Uzbekistan, 2017.[4]

5. Сирожиддинова З.Х., Вахобов А.В., Сиддиков Ж.Р. Государственный бюджет Республики Узбекистан. Учебное пособие. -Т.: ТФИ, 2021.[5]

6. Рузиев З.И. Мах,аллий бюджет даромадларини шакллантириш ва самарадорлигини ошириш истикболлари// Инновацион технологиялар, №. 3 (39),[6]

7. Rustamova M.M., Dementiev A.N. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining muvozanatlashning ba'zi muammolari // O'zMU axborotnomasi. 2020.[7]